RAQAMLI TARBIYA VOSITALARI ORQALI O‘QUVCHILARDA ONGLI TANLOV VA JAVOBGARLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Asqarova Shahnozaxon To‘lqinjon qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23511103

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasi asoslarini raqamli tarbiya vositalari yordamida shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Raqamli muhit kichik maktab yoshidagi bolani har kuni ko‘plab tanlov vaziyatlari bilan to‘qnashtirishi, bu esa uning ongli tanlov madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirishi asoslab berilgan.*
Kalit so‘zlar: *raqamli tarbiya, mas’uliyatli qaror, ongli tanlov, boshlang‘ich ta’lim, raqamli fuqarolik, raqamli savodxonlik, gamifikatsiya, refleksiya, ijtimoiy-emotsional ta’lim.*
Аннотация. *В статье анализируются теоретические и практические аспекты формирования основ навыка ответственного принятия решений у учащихся начальных классов средствами цифрового воспитания. Обосновано, что цифровая среда ежедневно ставит младшего школьника перед множеством ситуаций выбора, что усиливает потребность в культуре осознанного выбора.*
Ключевые слова: *цифровое воспитание, ответственное решение, осознанный выбор, начальное образование, цифровое гражданство, цифровая грамотность, геймификация, рефлексия.*
Abstract. *The article examines the theoretical and practical aspects of developing the foundations of responsible decision-making skills in primary school pupils through digital upbringing tools. It argues that the digital environment confronts young learners with numerous everyday choices, which increases the need for a culture of conscious choice.*
Keywords: *digital upbringing, responsible decision-making, conscious choice, primary education, digital citizenship, digital literacy, gamification, reflection.*

XXI asrning uchinchi o‘n yilligida bolalik raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq holda kechmoqda. Bugungi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi maktabga kelgunga qadar planshet, smartfon, video-xizmatlar va onlayn o‘yinlar bilan tanish bo‘lib, ularda har kuni o‘nlab mikrotanlovlarni amalga oshiradi: qaysi videoni ko‘rish, reklama havolasini bosish yoki bosmaslik, notanish odamning xabariga javob berish, o‘yin ichidagi xaridni tasdiqlash, ekran oldida qancha vaqt o‘tkazish va hokazo. Bu tanlovlarning aksariyati kattalar nazoratisiz, tez va emotsional asosda qabul qilinadi. Shu bois kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘z tanlovining oqibatini oldindan ko‘ra bilish, uni axloqiy me’yorlar bilan solishtirish va natijasi uchun javobgarlikni his etish ko‘nikmasini erta shakllantirish pedagogik jihatdan dolzarb vazifaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu masala davlat siyosati darajasida e’tirof etilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi hamda Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida yosh avlodni axborot xurujlaridan himoyalash, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faollik va mas’uliyat hissini tarbiyalash ustuvor yo‘nalish

sifatida belgilangan. Shu bilan birga, amaliyotda raqamli texnologiyalar ko‘proq bilim berish vositasi sifatida qo‘llanilib, ularning tarbiyaviy, xususan, qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishdagi salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti.

Qaror qabul qilish jarayonining psixologik-pedagogik asoslari J. Piaje va L. Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyalarida chuqur yoritilgan bo‘lib, ularga ko‘ra 7–10 yoshli bola axloqiy me’yorlarni tashqi qoidalar sifatida qabul qilish bosqichidan ularni ichki ishonchga aylantirish bosqichiga o‘ta boshlaydi [7; 8]. L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi esa kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikdagi faoliyat bolaning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ko‘rsatadi [9]. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasida xulq-atvor namunalarini kuzatish va ularning oqibatlarini tahlil qilish orqali o‘rganish mexanizmi asoslangan bo‘lib, bu raqamli hikoyalar va simulyatsiyalarning tarbiyaviy imkoniyatini nazariy jihatdan izohlaydi [10].

Zamonaviy ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) yondashuvida CASEL tashkiloti mas’uliyatli qaror qabul qilishni beshta asosiy kompetensiyadan biri sifatida belgilaydi va uni “shaxsiy xulq-atvor hamda ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda axloqiy me’yorlar, xavfsizlik va ijtimoiy normalarga asoslangan, o‘ylangan tanlov qilish qobiliyati” deb ta’riflaydi [4]. M. Ribbl raqamli fuqarolikning to‘qqiz elementini ajratib, ular orasida raqamli odob, raqamli huquq va mas’uliyat, raqamli xavfsizlikni alohida ta’kidlaydi [5]. DQ Institute tomonidan ishlab chiqilgan raqamli intellekt standartlarida esa “raqamli empatiya” va “tanqidiy fikrlash” bilan bir qatorda “ekran vaqtini boshqarish” ko‘nikmalari 8-12 yoshdan shakllantirilishi lozimligi qayd etiladi [6]. EU Kids Online tadqiqotlari bolalarning onlayn xavflarga duch kelishi muqarrar ekanligini, ammo ularning salbiy ta’siri bolaning mustaqil qaror qabul qilish va yordam so‘rash ko‘nikmalariga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ko‘rinib turibdi, bu jarayonlarda biz bevosita raqamli tarbiya resurslaridan keng foydalanishimiz kerak. Raqamli tarbiya vositalari o‘zi nima?

Raqamli tarbiya resurslari – bu tarbiya jarayonida yoshlarning axloqiy, ma’naviy, vatanparvarlik va huquqiy ongini shakllantirish maqsadida yaratilgan, elektron shaklda saqlanadigan va axborot texnologiyalari vositalari orqali uzatiladigan kontent va vositalar majmuidir. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

№	Resurs turi	Tavsifi	Tarbiyaviy imkoniyati
1	Elektron darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar	Interaktiv matn, test, multimedia bilan boyitilgan	Mustaqil ta’lim va qadriyatlar asosidagi bilim
2	Ta’limiy platformalar va LMS	Moodle, Google Classroom, milliy platformalar	Tarbiyani tizimli tashkil etish, monitoring

№	Resurs turi	Tavsifi	Tarbiyaviy imkoniyati
3	Multimedia kontent (video, audio, animatsiya)	Qisqa metrajli tarbiyaviy roliklar, podcastlar	Hissiy ta’sir kuchli, tez yot olinadi
4	Ijtimoiy tarmoqdagi tarbiyaviy kontent	Telegram-kanallar, sahifalar, bloglar	Keng qamrov, tengdoshlar ta’siri
5	Mobil ilovalar	Qadriyatlar, kitobxonlik, milliy o‘yinlar ilovalari	Kundalik hayotga singdirilgan tarbiya
6	Virtual muzeylar va raqamli meros	3D turlar, elektron arxivlar, xaritalar	Vatanparvarlik, tarixiy ong
7	Ta’limiy o‘yinlar (gamifikatsiya)	Viktorina, kvest, simulyatsiyalar	Faollik va motivatsiyani oshirish

Shuningdek, raqamli vositalarni 2 xil jihatdan ko‘rib chiqishimiz kerak:

Ijobiy tomonlar	Salbiy tomonlar (xavflar)
Tarbiyaviy materiallarga istalgan vaqtda kirish imkoniyati	Nazoratsiz kontent, zararli axborotlar ta’siri
Interaktivlik va motivatsiyaning oshishi	Virtual qaramlik, ekran vaqtining oshishi
Milliy qadriyatlarni zamonaviy formatda targ‘ib qilish	Milliy o‘zlikni anglashning susayishi, madaniy assimilyatsiya xavfi
Ota-ona va pedagog bilan onlayn hamkorlik	Oilaviy muloqotning qisqarishi
Har bir bolaga moslashtirilgan (inklyuziv) yondashuv	Kiberbulling, maxfiylik buzilishi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli kontentning o‘zi na to‘liq ijobiy, na to‘liq salbiy – uning tarbiyaviy samarasi qanday yaratilgani, qanday tanlangan va qanday boshqarilganiga bog‘liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli tarbiya resurslarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha quyidagicha tavsiyalar ishlab chiqish mumkin:

1. Milliy mazmun ustuvorligi – resurslar milliy qadriyatlar, ona tili, tarix va madaniyatga asoslanishi lozim;

2. Yoshga moslik – kontent har bir yosh toifasining psixologik xususiyatlariga mos tuzilishi kerak;

3. Qisqa va dinamik format – yoshlar e’tiborini ushlab turuvchi 3–7 daqiqalik videolar, infografikalar;

4. Pedagogik nazorat – resurslarni ekspertiza kengashidan o‘tkazish, tarbiyaviy xavfsizlik sertifikatlash;

5. Ota-ona va pedagoglar media savodxonligini oshirish – maxsus onlayn kurslar tashkil etish;

6. Gamifikatsiya elementlari – o‘yinlashtirish orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish;

7. Qayta aloqa mexanizmi – o‘quvchi fikrini inobatga oluvchi interaktiv tizimlar.

Chet el tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, Finlyandiya va Estoniyada media savodxonlik maktab dasturlariga kiritilgan; Janubiy Koreyada raqamli fuqarolik (digital citizenship) fani sifatida o‘qitiladi; Buyuk Britaniyada bolalarni onlayn himoya qilish bo‘yicha alohida qonunchilik ishlamoqda. Ushbu tajribalar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilib qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalarni faqat xavf manbai sifatida emas, balki tarbiyaning samarali vositasi sifatida ham ko‘rish mumkin. Tarmoqlanuvchi syujetli raqamli hikoyalar bolaga real hayotda xavfli yoki qaytarib bo‘lmaydigan bo‘lgan tanlovlarning oqibatini xavfsiz “virtual laboratoriya”da sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu A. Banduraning vositachilik orqali o‘rganish g‘oyasiga mos keladi [10]. Gamifikatsiya elementlari esa kichik maktab yoshidagi bolaning yetakchi faoliyati – o‘yin va o‘qishning tutashgan nuqtasida ishlab, ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

Raqamli muhit boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun kundalik tanlov vaziyatlarining asosiy manbalaridan biriga aylangan bo‘lib, mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasini aynan shu muhit bilan bog‘liq holda shakllantirish zarur.

Mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasi asoslari motivatsion, kognitiv, refleksiv va amaliy-faoliyat komponentlarining uyg‘unligidan iborat integrativ sifatdir.

Raqamli vositalar milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari va oila hamkorligi bilan uyg‘unlashtirilgandagina barqaror tarbiyaviy natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. CASEL. CASEL’s SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? – Chicago: CASEL, 2020.
2. Ribble M. Digital Citizenship in Schools: Nine Elements All Students Should Know. 3rd ed. – Eugene, OR: ISTE, 2015. – 216 p.
3. DQ Institute. DQ Global Standards Report 2019: Common Framework for Digital Literacy, Skills and Readiness. – 2019.
4. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – New York: Free Press, 1965. – 418 p.
5. Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. 1: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981.

6. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
7. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
8. Livingstone S., Haddon L., Görzig A., Ólafsson K. Risks and Safety on the Internet: The Perspective of European Children. – London: EU Kids Online, LSE, 2011.
9. UNESCO. Digital Kids Asia-Pacific: Insights into Children’s Digital Citizenship. – Bangkok: UNESCO, 2019.
10. Эльконин Д.Б. Детская психология. – М.: Академия, 2007. – 384 с.